

УО‘К: 547-32.54-057:543.33


doi 10.5281/zenodo.10700440

**MFQ SORBENTI VA UNING Cu(II), Zn(II), Ni(II) IONLARI BILAN HOSIL  
QILGAN METALLOKOMPLEKSLARINING SPEKTROSKOPIK  
TAHLILLAR**



*Mo'minova Shaxnoza*

Termiz davlat universiteti katta  
o'qituvchisi



*Muqumova Gulvar  
Jumayevna*

Termiz davlat universiteti  
doktarantasi



*Kasimov Sherzod  
Abduzairovich*

k.f.d., prof.v.b., Termiz davlat  
universiteti,  
E-mail: [gosimovsh@tersu.uz](mailto:gosimovsh@tersu.uz)



*Xo'shboqova Farangiz*

Termiz davlat universiteti  
magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada polikondensatsiya reaksiyasi orqali melamin, formalin va qahrabo (MFQ) kislotasi asosida sintez qilingan sorbent bo'yicha tadqiqot olib borildi. Olingan MFQ sorbenti bilan Cu(II), Zn(II), Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan metallokopleksing Raman spektrlari o'r ganilgan va tahlil qilindi. Ushbu maqolada polisaxarid biosorbent bilan Cd<sup>2+</sup>, Cu<sup>2+</sup>, Fe<sup>2+</sup>, Ni<sup>2+</sup>, Zn<sup>2+</sup> ionlarining sorbsiyasi o'r ganilgan. Metall sulfatning suvli eritmasi va tarkibida sellyuloza bo'lgan sorbentning geterofaza tizimida metall kationlarini taqsimlash jarayoniga pH ning ta'siri aniqlangan. Sintez qilingan polimer sorbentning tarkibi va xossalariini zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida o'ganilgan. Raman spektroskopiyasi sochma yorug'likni o'r ganishga asoslangan, IQ spektroskopiyasi esa yorug'likning yutilishiga asoslangan. Raman spektroskopiyasi ham IQ spektroskopiyasidek namunalarni 4000 sm<sup>-1</sup> dan 400 sm<sup>-1</sup> gacha bo'lgan sohada joylashgan IQ-spektrini tahlil qilish orqali qanday bog' mavjudligini va namunalarning qaysi sinfga oidligi haqida fikr yuritildi. Olingan yangi sorbentning va u asosida olingan metallokoplekslarning yutilish chiziqlarining spektr chiziqlar aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** sorbent, melamin, formalin, qahrabo kislotasi, Polikondensatsiyareaksiyasi, metallokopleks, bo'kish darajasi, Raman-spektri.

**СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОРБЕНТА МФЯ И ЕГО  
МЕТАЛЛОКОМПЛЕКСОВ, ОБРАЗОВАННЫХ С ИОНАМИ Cu(II), Zn(II),**

**Ni(II)**

*Муминова Шахноза*

Термезского государственного  
университета

*Мукумова Гулвар  
Жумаевна*

Докторант Термезского  
государственного университета

*Касимов Шерзод  
Абдузоирович*

Термезского государственного  
университета

*Хушбокова Фарангиз*

Магистрант Термезского  
государственного университета

**Аннотация.** В данной работе проведено исследование сорбента, синтезированного на основе меламина, формалина и янтарной (*МФХ*) кислоты по реакции поликонденсации. Изучены и проанализированы спектры комбинационного рассеяния металлокомплекса, образующегося на основе полученного сорбента *МФХ* с ионами *Cu(II)*, *Zn(II)*, *Ni(II)*. В данной статье исследована сорбция ионов *Cd<sup>2+</sup>*, *Cu<sup>2+</sup>*, *Fe<sup>2+</sup>*, *Ni<sup>2+</sup>*, *Zn<sup>2+</sup>* полисахаридным биосорбентом. Определено влияние *pH* на распределение катионов металлов в гетерофазной системе водный раствор сульфата металла и сорбент, содержащий целлюлозу. Состав и свойства синтезированного полимерного сорбента изучены с использованием современных методов физико-химического анализа. Рамановская спектроскопия основана на изучении рассеянного света, а ИК-спектроскопия — на поглощении света. Рамановская спектроскопия, как и ИК-спектроскопия, путем анализа ИК-спектра образцов в диапазоне от 4000  $\text{cm}^{-1}$  до 400  $\text{cm}^{-1}$  задумывалась о том, какая связь существует и к какому классу относятся образцы. Определены спектральные линии линий поглощения полученных новых сорбентов и металлокомплексов на его основе.

**Ключевые слова:** сорбент, меламин, формалин, янтарная кислота, реакция поликонденсации, металлокомплекс, скорость тушения, спектр комбинационного рассеяния света.

## SPECTROSCOPIC ANALYSIS OF SORBENT MFP AND ITS METAL COMPLEXES FORMED WITH Cu(II), Zn(II), Ni(II) IONS

Muminova Shakhnoza

Lecturer at Termez State University

Muqumova Gulvar Jumayevna

Doctoral student at Termez State University

Kasimov Sherzod Abduzairovich

Prof. Termez State University

Khushbokova Farangiz

Master student at Termez State University

**Abstract.** In this paper, a study was conducted on a sorbent synthesized on the basis of melamine, formalin and succinic (*MFQ*) acid by polycondensation reaction. The Raman spectra of the metallocomplex formed with the obtained *MFQ* sorbent with *Cu(II)*, *Zn(II)*, *Ni(II)* ions were studied and analyzed. In this article, the sorption of *Cd<sup>2+</sup>*, *Cu<sup>2+</sup>*, *Fe<sup>2+</sup>*, *Ni<sup>2+</sup>*, *Zn<sup>2+</sup>* ions by polysaccharide biosorbent was studied. The effect of *pH* on the distribution of metal cations in the heterophase system of an aqueous solution of metal sulfate and a sorbent containing cellulose was determined. The composition and properties of the synthesized polymer sorbent were studied using modern physicochemical analysis methods. Raman spectroscopy is based on the study of scattered light, while IR spectroscopy is based on the absorption of light. Raman spectroscopy, like IR spectroscopy, by analyzing the IR-spectrum of the samples in the range from 4000  $\text{cm}^{-1}$  to 400  $\text{cm}^{-1}$ , it was thought about what bond exists and what class the samples belong to. Spectral lines of the absorption lines of the obtained new sorbent and metallocomplexes based on it were determined.

**Keywords:** sorbent, melamine, formalin, succinic acid, polycondensation reaction, metal

*complex, quenching rate, Raman spectrum.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtida Respublikamizda ichimlik suvi muammosini bartaraf etish maqsadida kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishga, xususan, oqava suvlarni og‘ir va zaharli metallardan tozalash uchun ishlatiladigan kompleks hosil qiluvchi sorbentlarni ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishga, xususan, rangli va nodir metallarni eritmalar tarkibidan tanlab ajratib olishda hamda oqava suvlarni og‘ir metallardan tozalash uchun qo’llaniladigan sorbentlarni olish bo‘yicha ma’lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan [1].

**Adabiyot tahlili va usullari.** Mualliflar tomonidan keltirilgan ushbu maqolada suv havzalarini og‘ir metallar birikmalaridan ifloslantirish va o‘z-o‘zini tozalash muammosi ko‘rib chiqilgan. Og‘ir metall birikmalarini ( $\text{Cu}^{(II)}$ ,  $\text{Zn}^{(II)}$ ,  $\text{Pb}^{(II)}$ ,  $\text{Cd}^{(II)}$ ) turli tarkibli tub cho‘kindilari tomonidan sorbsiyalanish jarayoni o‘rganilgan. Laboratoriya tadqiqotlari jarayonida muvozanat konstantalari va og‘ir metallarning pastki cho‘kindilar tomonidan sorbsiya tezligi olingan. Olingan ma’lumotlar suv obyektining sanoat oqava suvlari bilan ifloslanishi natijasida suv sifatini bashorat qilish uchun zarurligi aniqlangan [2; 58-62-b].

Ushbu maqolada polisaxarid biosorbent bilan  $\text{Cd}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$  ionlarining sorbsiyasi o‘rganilgan. Metall sulfatning suvli eritmasi va tarkibida selluloza bo‘lgan sorbentning geterofaza tizimida metall kationlarini taqsimlash jarayoniga pH ning ta’siri aniqlangan [3; 1642-1645-b].

Maqolada kompleks hosil qiluvchi ion

almashtirgichlarning tarkibi va tuzilishi ko‘rib chiqilgan, IQ spektral tahlili o‘tkazilgan, uning yordamida kamyoviy bog‘lanishlar va ion almashinuvchining funksional guruhlari aniqlangan. Jadvalda hosil bo‘lgan ion almashinuvchining ionlarining (metall,  $\text{OH}^-$ ,  $\text{Cl}^-$ ) sorbsiyalanish darajasi natijalari ko‘rsatilgan. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatganki, hosil bo‘lgan ion almashtirgichlar rangli va qimmat baho metallarning selektiv sorbsion xususiyatlariga ega ekanligi aniqlangan [4; 7-b].

Mualliflar tomonidan keltirilgan ushbu ishda polietilentereftalatdan tayyorlangan qadoq va idishlardan olingan faol uglerodrlarning og‘ir metallar ionlariga nisbatan sorbsiya qobiliyati o‘rganilgan.  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$  ning sorbsiya qiymatlari asosida an‘anaviy bug‘-gaz faollashtirish va sulfat kislota bilan oldindan ishlov berish orqali olingan namunalar uchun faollik qatorlari aniqlangan [5; 893-896-b].

**MFQ sorbentining sintezi.** 2,52 g (0,02 mol) melamin 5 ml (0,06 mol) formalinda eritildi va pH=8 bo‘lgunga qadar  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasi qo‘sildi. Harorat 80-90°C da qavushqoq massa hosil bo‘lgungacha qizdirildi. Hosil bo‘lgan qovushqoq aralashmaga 3,54 g (0,03mol) qahrabo kislotani 5 ml  $\text{NH}_4\text{OH}$  dagi eritmasidan tomchilatib qo‘sildi va aralashtirildi. Harorat 100-120°C ga ko‘tarilganda qattiq yoki saqichsimon massa hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan smolasimon massa chinni kosachaga solindi va quritish shkafida 95°C haroratda 20 soat davomida quritildi. Quritilgan polimer maydalangach, past molekulyar og‘irlilikdagi moddalardan dastlab 5% li  $\text{NaOH}$  eritmasi bilan, so‘ngra bir necha marotaba distillangan suv bilan neytral holga kelguncha


yuvildi. Natijada kichik g'ovaklardan iborat oq rangli donador massa hosil bo'ldi. Mahsulot unumi 93% ni tashkil etdi.

**Muhukama.** Sintez qilingan polimer sorbentning tarkibi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida o'ganilgan. Raman spektroskopiyasi sochma yorug'likni o'rganishga asoslangan, IQ spektroskopiyasi esa yorug'likning yutilishiga asoslangan. Raman spektroskopiyasi ham IQ spektroskopiyasidek namunalarni  $4000\text{ cm}^{-1}$  dan  $400\text{ cm}^{-1}$  gacha bo'lgan sohada joylashgan IQ-spektrini tahlil qilish orqali qanday bog' mavjudligini va namunalarning qaysi sinfga oidligi


haqida fikr yuritildi. Olingan yangi sorbentning va u asosida olingan metallokompleslarning yutilish chiziqlarining spektr chiziqlar aniqlandi.

1-rasmda MFQ sorbent tarkibidagi -NH bog'ining valent tebranish chastotasi  $3073,29\text{ cm}^{-1}$  sohada, -C=O bog'ining valent tabranish chastotasi  $1843,83\text{ cm}^{-1}$  sohada, -NH bog'ining deffarmatsion tebranish chastotasi  $1563,94\text{ cm}^{-1}$  sohada, -COO<sup>-</sup> bog'ining assimetrik valent tebranish chastotasi  $1730,19\text{ cm}^{-1}$  sohada, efir bog'ining simmetrik tebranish chastotasi  $1175,84\text{ cm}^{-1}$  sohada hosil bo'ldi.

### MFQ sorbenti bilan Cu(II) ioni hosil



1-rasm. MFQ sorbentining Raman spektri



2-rasm. Cu(II) ni MFQ sorbenti bilan hosil qilgan kompleksining Raman spektri

### qilgan metallocompleksing Raman spektroskopik tahlili


MFQ sorbent Cu(II) ni sorbsiyalash natijasida olingan kompleks Raman (HORIBA Scientific) spektri 2-rasmida keltirilgan, unga ko‘ra tarkibidagi -NH bog‘ining valent tebranish chastotasi  $3063,99\text{ cm}^{-1}$  sohada, -C=O bog‘ining valent tabranish chastotasi  $1853,03\text{ cm}^{-1}$  sohada, -NH bog‘ining deffarmatsion valent tebranish chastotasi  $1603,03\text{ cm}^{-1}$  sohada, -COO<sup>-</sup> bog‘ining assimmetrik valent tebranish chastotasi  $1720,12\text{ cm}^{-1}$  sohada, efir bog‘ining simmetrik tebranish chastotasi  $1194,22\text{ cm}^{-1}$  sohada hosil bo‘ldi.

### MFQ sorbenti bilan Zn(II) ioni hosil qilgan metallocompleksing Raman spektroskopik tahlili


MFQ sorbent Zn(II) ni sorbsiyalash natijasida olingan kompleks Raman (HORIBA Scientific) spektri 3-rasmida keltirilgan, unga ko‘ra tarkibidagi -NH bog‘ining valent tebranish chastotasi  $3069,92\text{ cm}^{-1}$  sohada, -C=O bog‘ining valent tabranish chastotasi  $1803,23\text{ cm}^{-1}$  sohada, -NH bog‘ining deffarmatsion valent tebranish chastotasi  $1554,04\text{ cm}^{-1}$  sohada, -COO<sup>-</sup> bog‘ining assimmetrik valent tebranish chastotasi  $1719,02\text{ cm}^{-1}$  sohada, efir bog‘ining simmetrik tebranish chastotasi  $1140,81\text{ cm}^{-1}$  sohada hosil bo‘ldi.

### MFQ sorbenti bilan Ni(II) ioni hosil qilgan metallocompleksing Raman spektroskopik tahlili

MFQ sorbent Ni(II) ni sorbsiyalash natijasida olingan kompleks Raman



**3-rasm. Zn(II) ni MFQ sorbenti bilan hosil qilgan kompleksining Raman spektri**



**4-rasm. Ni(II) ni MFQ sorbenti bilan hosil qilgan kompleksining Raman spektri**

1-jadval

*MFQ sorbentivauning Cu (II), Zn (II), Ni(II) ionlari bilan hosilqilgan koordinasion birikmalarining Raman-spektrlaridagi yutilish( $\text{sm}^{-1}$ ) chastotalari*

Tebranishtasniflari	MFQ	MFQ+Cu(II)	MFQ+Zn(II)	MFQ+Ni(II)	$\text{sm}^{-1}$
v(NH)	3073,29	3063,99	3069,92	3112,10	
v(C=O)	1843,83	1853,03	1803,23	1810,03	
$\delta(\text{NH})$	1563,94	1603,03	1554,04	1539,14	
$\nu_{\text{as}}(-\text{COO}^-)$	1730,19	1720,12	1719,02	1703,99	
$\nu_{\text{as}}(-\text{C-O-C}-)$	11775,84	1194,22	1140,81	1184,18	

(HORIBA Scientific) spektri 4-rasmda keltirilgan, unga ko‘ra tarkibidagi -NH bog‘ining valent tebranish chastotasi  $3112,10 \text{ sm}^{-1}$  sohada, -C=O bog‘ining valent tabranish chastotasi  $1810,03 \text{ sm}^{-1}$  sohada, -NH bog‘ining deffarmatsion valent tebranish chastotasi  $1539,03 \text{ sm}^{-1}$  sohada, -COO<sup>-</sup> bog‘ining assimetrik valent tebranish chastotasi  $1703,99 \text{ sm}^{-1}$  sohada, efir bog‘ining simmetrik tebranish chastotasi  $1184,18 \text{ sm}^{-1}$  sohada hosil bo‘ldi.

**Xulosa.** Polikondensatsiyalanish reaksiysi natijasida kompleks hosil qiluvchi

melamin, formalin va qahrabo kislota asosida sintez qilingan sorbentning xossalari tadqiq qilindi. Sintez qilingan sorbentning va uning Cu (II), Zn (II), Ni (II) ionlari bilan hosil qilgan metallokomplekslarining xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan Raman spektroskopik usuli yordamida o‘ganilgan. Raman spektroskopiyasidan olingan natijalar tahlil qilinib, natijalar jadval asosida berildi. Jadvalda sorbent va metallokomplekslar tarkibidagi guruhlarga mos keluvchi yutilish chastotalari berilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kasimov Sh.A. Ba’zi d-metallarning tarkibida N,P,S bo‘lgan immobillangan ligandlar bilan metallokomplekslari: sintezi, tuzilishi va xossalari. // Doktorlik dissertatsiyasi – T.: 2021. 28-46 b.
2. Беззапонная О. В. Самоочищение поверхностных водных объектов от соединений тяжёлых металлов //Экология урбанизированных территорий. – 2008. – №. 2. – С. 58-62.
3. Никифорова Т. Е., Козлов В. А. Особенности сорбции ионов тяжелых металлов целлюлозосодержащим сорбентом из водных сред //Журнал прикладной химии. – 2010. – Т. 83. – №. 10. – С. 1642-1645.
4. Эшкурбонов Ф. Б. и др. Исследование сорбции некоторых металлов на синтезированных комплексообразующих ионитах //Universum: химия и

- биология. – 2018. – №. 5 (47). – С. 7.
5. Сыч Н. В. Сорбция ионов тяжелых металлов активными углями, полученными из отходов полиэтилентерефталата //Журнал прикладной химии. – 2009. – Т. 82. – №. 6. – С. 893-896.